

## Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini

2026-yilning 1-aprel holatiga ko'ra viloyatda 4 376 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulushi 766 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,5 % ) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, 754 tasi (17,2 %) kiyim ishlab chiqarishga, 633 tasi (14,5 %) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 441 tasi (10,1 %) to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni  
1-aprel holatiga ko'ra



## II. Namangan viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 9 279,0 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,8 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>9 279,0</b>	<b>108,8</b>
Namangan shahar	2 581,7	114,6
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq tumani	277,2	106,8
Kosonsoy tumani	466,9	105,4
Namangan tumani	424,1	105,7
Norin tumani	151,1	114,9
Pop tumani	258,7	113,3
To'raqo'rg'on tumani	1 595,1	106,3
Uychi tumani	693,2	106,2
Uchqo'rg'on tumani	358,4	113,6
Chortoq tumani	237,8	114,6
Chust tumani	745,7	113,5
Yangiqo'rg'on tumani	125,4	110,6

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2026- yil yanvar-mart oylarida 2 902,6 ming so'm (2025- yil yanvar-mart oylarida 2 363,9 ming so'm), o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,8 % ni ko'rsatmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi  
yanvar-mart oylarida



**Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari**

2026-yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 7 711,6 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (83,1 %)ni tashkil etgan holda elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 1 414,6 mlrd so'm (15,2 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 120,4 mlrd so'm (1,3 %) hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 32,4 mlrd so'm (0,3 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,  
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi  
2026-yilning yanvar-mart oylarida



### III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 11 112,0 tonna paxta chigiti (2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 73,7 % ga ko'paygan), 223,7 tonna paxta tiviti(lint) (31,9 % ga kamaygan), 10 435,0 tonna ishlov berilgan suyuq sut mahsulotlari (6,2 % ga kamaygan), 6 964,6 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (39,2 % ga ko'paygan) hamda 2 072,0 tonna tozalanmagan paxta yog'i (27,5 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart*	2025-yil yanvar-mart *	2026-yil yanvar-mart
Paxta chigiti, tonna	17 522,2	6 397,2	11 112,0
Paxta tiviti (lint), tonna	686,4	328,7	223,7
Ishlov berilgan suyuq sut, tonna	10 997,0	11 122,0	10 435,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	10 206,1	5 003,5	6 964,6
Tozalanmagan paxta yog'i, tonna	8 433,2	2 859,1	2 072,0
Tozalangan paxta yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	4 411,0	1 731,7	283,3
Paxta iplari, tonna	11 872,8	15 663,0	12 238,8
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar, tonna	884,9	1 792,9	393,2

*\*2024-2025-yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**  
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)


### Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori ulushga ega faoliyat turi to'qimachilik, kiyim ishlab chiqarish, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi – 42,2 % (2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,6 %) ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 29,0 % (2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,0 %)ni, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi esa – 3,1 % (2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 88,3 %)ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,9 %ni (2025-yilning yanvar-mart oylarida 1,1%), o'rta-yuqori texnologiyali – 7,3 % (8,3 %), o'rta-quyi texnologiyali – 14,5 % (13,8 %), quyi texnologiyali 76,3 % (76,8 %)ni tashkil etgan.

### Namangan viloyatida yirik korxonalar tomonidan



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 94,4 %ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa, 2,6 martani tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart*	2025-yil yanvar-mart *	2026-yil yanvar-mart
Jami ishlab chiqarilgan elektr energiya, mln.kvt.s	1 506,9	1 281,5	1 209,4
Issiqlik energiyasi-ming. Gkal.	47,2	19,8	52,2

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlarida 175,0 %ga ko'payish, oqava suvlarning shlami 2,4 martaga ko'payishi kuzatildi. Shuningdek, xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari 193,6 %ga ko'payganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-mart*	2025-yil yanvar-mart *	2026-yil yanvar-mart
Tabiiy suv; suvni tozalash va suv ta'minoti xizmatlari- mlrd. so'm	32,5	32,5	56,9
Oqava suvlarning shlami - mlrd.so'm	2,3	2,9	6,9
Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari- mlrd so'm	14,2	12,2	23,6

\*2024-2025-yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

### IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 637,9 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 50,0 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 47,0 % ni tashkil etgan.



\*2025-yil yanvar-mart oylari uchun kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish ko'rsatkichlari qayta aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

## V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

### Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Namangan viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indeksarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

**B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**C** - Ishlab chiqarish sanoati

**D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish



**Metama'lumot uchun havola:**

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfqheheh5446456>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**

Sanoat va energetika  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**

N. Abduraxmonova  
69 211-72-00 (5010)

**Manzil:**

**160133, Namangan sh,  
N.Namangoniy ko'chasi, 14-uy.**

---